

**“FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA BO‘LAJAK TIBBIYOT
XODIMLARINING DIAGNOSTIK KOMPETENTSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI”**

S.A.Xalimova

Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
biokimyo kafedrasи assistenti
Samarqand shahar,
salomatxalimova@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda barcha oliy ta’limlarining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu vazifaning dolzarblii shundan iboratki, davlat ta’lim standartlarining yangi avlodiga muvofiq, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda materialni interaktiv taqdim etish.

Kalit so‘zlar: ilmiylik, tizimlilik, integrativlik va onglilik tamoyillari, diagnostika, kompetentsiya, kreativlik.

Diagnostik kompetentsiyalaridan foydalanishda umumiy tamoyillari orasidan eng asosiyalarini, ya’ni butun kasbiy tayyorgarlik jarayoni mazmuni va uni tashkil etishning asosini tasniflaydigan o‘ziga xos xususiyatlari va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta’sirini aks etiruvchi quyidagi tamoyillarni ajratib olish kerak:

Ilmiylik tamoyili - talabalarga o‘rganish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko‘rilgan ma’lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng yangi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi.

Har bir darsda o‘qitiladigan o‘quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo‘lishi va talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishni hamda talabaning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi, zamonaviy pedagogik

texnologiyalar kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo‘lishi lozim. Talaba o‘rganayotgan bilimlar albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo‘lishi kerak [3.p.92-95].

Tizimlilik tamoyili - talabalar o‘zalashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarni tizimli bayon qilish – yangi bilim, ko‘nikmalarni ilgari o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalar bilan bog‘lash shu orqali talabalarning tushuncha va tasavvurlari borasidagi bilimlarini takomillashtirish, ma’lumotlarni qismlargacha bo‘lgan holda o‘rganish, ularning asosiy jihatlarini, umumiyligi tushunchalarini alohida ifodalash bilan talabalarning mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Tizimli yondashuv vositasida oddiyidan murakkabga, eskidan yangiga, bilimdan ko‘nikmaga, ko‘nikmadan esa malakaga qarab tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Integrativlik tamoyili- turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka va tajribani hisobga olish, ta’lim mazmunini egiluvchanligini ta’minlash, tayanish, integratsiya qilish, kasbiy kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni baravar rivojlantirishni eng qulay sharoitini yaratishni nazarda tutadi [4. P. 20-22].

Integrativlik va fanlararo munosabat, bu mazmun, texnologiyalar darajasida fanlarning integratsiyasiga mo‘ljallangan, shuningdek, ularning bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyati bilan aloqasini ta’minlaydi.

Shuningdek, integrativlik tamoyili turli ilmiy sohalar materialini integratsiya qilish sharoitida bilimlarni yaxlit idrok qilishga, fanlararo bog‘lanishlar va aloqalarning mavjudligiga yo‘naltirilgan. “Integratsiya qismlarini biror butungina birlashtirishni nazarda tutadi”. Pedagogik integratsiyani biz maqsadlar, mazmun, tamoyillar, o‘quv jarayonini tashkil etish shakllarini birlashtirish jarayoni tarzida, shuningdek, o‘quv jarayoni komponentlarining o‘zaro ta’sirlashuvida yirik modullarining yaratilishi sifatida qaraymiz.

Onglilik tamoyili - onglilik talabalarni yangi materialini idrok qilishda ta’riflar, teoremalar, adabiyotdan she’r yodlash va hokazolarning ifodalanishinigina emas, balki ularning hayotiy xodisalar, jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan mavzuni ham tushunishlarini talab etadi. Aks holda bilimlarda yuzakichilik avj oladi, bunda material quruq yodlab olingan bo‘ladi. Bunday bilimlar tez unitiladi. Bundan tashqari bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish talabalarda bu bilimlarga nisbatan ma’lum munosabat hosil qilishni, emotsiyonal kechinmalar uyg‘otishni ham o‘z ichiga oladi [3.p. 92-95].

Faollik tamoyili - biz yaxshi bilamizki, ta’lim ikki tomonlilik xususiyatiga ega. Ta’lim jarayoni pedagog yo‘naltiruvchi bo‘lib maydonga chiqadi va talabalar o‘rganish jarayonini o‘z boshlaridan kechiradilar. O‘rganish jarayoni murakkab psixik jarayon bo‘lib talabadan ma’lum faollikni talab etadi. Pedagog qanchalik ta’lim jarayonini sermazmun, qiziqarli va mahorat bilan tashkil etmasin talaba tomonidan ma’lum faollik bildirilmasa, o‘quv jarayonida samaraga erishish mumkin bo‘lmaydi. Demak o‘quv jarayonida avval talabalarda faollikni uyg‘otish zarur. Bu faollik bilish jarayoniga ta’sir etadi, idrok qilish, tahlil qilish, analiz va sintez kabi psixik jarayonlarni ishga tushiradi. Talabalarda faollik holatini vujudga kelishda motivatsiyalar ahamiyatlidir[2.B 809-814]. Ta’limning tamoyillilik metodikasi nazariya va amaliyotning birligi, tasavvur qilish, ta’limning ko‘rgazmaligi, tizimlilik, faollik, onglilik, integrativlik hamda ta’lim oluvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarni o‘zaro uyg‘unligidadir.

Nazariya va amaliyotning birligi tamoyili - ta’limning asosiy maqsadi yoshlarni mustaqillik hayotga tayyorlash ya’ni turli xil hayotiy sharoitlarda o‘z bilim, malaka va ko‘nikmalarini amalda qo‘llay olish darajasiga yetkazishdir. Shuning uchun biz ta’lim jarayonida talabalarni faqat ilmiy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasdan, balki ana shu bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishlarini ta’minlashimiz lozim. Demak, bu tamoyil ta’limning ilmiyligi haqida tamoyil bilan hamohang bo‘lib, ular bir-birlarini to‘ldirib keladilar. Ta’limning

ilmiylici bilimlarni nazariy jihatdan o‘rganishga, mantiqiy bog‘liqliklarni tushunishga, fikrlash qobiliyatini o‘stirishga xizmat qilsa, amaliy harakatlar ana shu bilimlarni amalda qo‘llab ko‘rish yanada to‘liqroq ishonch hosil qilish, malaka hamda ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi [5;40-b.].

Ta’limning ko‘rgazmaliligi - mavhum tushunchalarni egallashda bilish uchun asos hisoblanadi. Bu yerda ko‘rgazmalilik tushunchasi buyumlarning bevosita o‘zлari emas, balki ularning grafik tasvirlari bilan bog‘liqligini qayd qilish zarur. Har qanday tasvir buyumni his qiladigan ko‘rish organlarimiz orqali fahmlanadi. Shuning uchun ko‘rgazmalilik inson miyasida obyekt belgilarini modellashtirish natijasida hosil bo‘ladigan ko‘rinish obrazi deb qabul qilinadi.

Hozirgi sharoitda bu tamoyil faqatgina jadval, plakat, dinamik qo‘llanmalar, modellar, kabilar emas balki qo‘sishma ravishda ko‘p sonli audiovizual vositalar (turli proeksiyon - apparatlar, kino, televedeniya) hamda EHM (displaylar, grafyasagichlar)dan keng foydalanib qo‘llanilmoqda.

Uyg‘unlilik tamoyili - talabalarning bilish faoliyatida virtual laboratoriylar orqali real va virtual ishlarning optimal uyg‘unligi hisobiga dars mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga erishiladi. Talabalarda tanqidiy fikrlash va mustaqillikni rivojlantirishning asoslardan biriga aylanadi. Ushbu tamoyil kasbiy tayyorgarlik jarayoni mazmuni va uni tashkil etishning asosini tasniflaydigan o‘ziga xos xususiyatlari va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta’sirini aks etiruvchi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. O‘quv jarayonida laboratoriya ishlarini amalga oshirishda vaqtning katta qismi o‘rnatish bilan qanday ishlashni tushunishga sarflanganligi sababli, virtual laboratoriyanı yuklab olish orqali talaba oldindan tayyorgarlik ko‘rish, laboratoriya jihozlarini o‘zlashtirib olish, uning ishslashini turli sohalarda foydalana olish imkoniyatiga ega. Talaba o‘z bilimini amalda sinab ko‘rish, amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilish, bajarilgan ish natijasini tahlil qilish imkoniyatini qo‘lga kiritadi [1].

Tasavvur qilish tamoyili – ushbu tamoyil talabalarda bilim olish jarayonida o‘rganishi lozim bo‘lgan yangi bilimlarni tasavvur qilish orqali ongida gavdalantiradilar. Masalan: biokimyo fanidan ko‘z bilan kuzatish imkonini bo‘lmasligi, sodir bo‘ladigan zanjir reaksiyalarini tasavvur qilish orqali stimulyatsiya qilinadi. Bu bilish, tafakkur etish jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirib, texnologiyalarning yangilanib borishida shaxsni hayotga va mehnat qilishga tayyorlashning yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Xulosa: Yuqoridagi ta’moyillarni amalga oshirish natijasida fanlararo aloqadorlik asosida bo‘lajak tibbiyat xodimlarining diagnostik kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikalarini bajarish imkoniyatini beruvchi pedagogik dasturiy vositalarni takomillashtirishning yuqori didaktik samarasini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xalimova S.A. Fanlararo aloqadorlik asosida bo‘lajak tibbiyat xodimlarining diagnostik kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi. “Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari” ilmiy-nazariy jurnal. ISSN:2181-9580, –Toshkent, 2023. (13.00.00 №32)
2. Mamadaliyeva Z.R. Tibbiyat oliy ta’lim muassasalarida biokimyo fanini o‘rgatishda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirish omili sifatida // NamDU ilmiy axborotnomasi. ISSN 2181-1458, – Namangan, 2023. -№4 -B 809-814. (13.00.00 №30)
3. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratory - information in education a specific factor of the communication system in the form // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN:2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5, 2022. p. 92–95. <https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/614>
4. Xalikov Q.M, Z.R.Mamadaliyeva “Determination of aminotransferase in blood by virtual laboratory”. Thematis Jounal of Chemistry 2022. Impact Factor 7.3 ISSN: 2250-382X -№5.-Б. Page: 20-22. .
[https://doi.org/10.5281/zenodo.6563063\(2022\)](https://doi.org/10.5281/zenodo.6563063(2022))
5. Mamadaliyeva Z.R. Tibbiyat oliy ta’lim muassasalarida localhost dasturi asosida biokimyo fanini virtual laboratoriyalardan foydalanib o‘qitish // The role

of exact sciences the era of modern development. Nukus. Vol.1 №.1, 2023. p. 47-51. <https://uzresearchers.com/index.php/RESMD/article/view/765/703>

6. Мамадалиева З.Р. Виртуал лаборатория ишларидан ўкув сифатини ошириш элементи сифатида фойдаланиш. // “Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi” respublika ko‘p tarmoqli, ilmiy konferensiya. Andijan. №9, 2023. -Б. 108-111.
<https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/28/45>

7. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratoriya usilida qonda xolesterin miqdorini biokimyoviy analizatorda aniqlash // “Biologik kimyo fanining zamonaviy tibbiyotdagi o’rni-kecha, bugun va erta” respublika ilmiy-amaliy konferentsiya to’plami. Buxoro, 2022. -b. 113-114.

8. Mamadaliyeva Z.R. Improving the quality of learning through virtual laboratory work use as element // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN: 2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5 2022. p. 84-86.
<https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/612>

9. Мамадалиева З.Р. Тиббиёт олий таълим ташкилотларида биокимё фанини виртуал лабораториялардан фойдаланиб булатли технологияларнинг тарқатиш моделлари методикаси // "Science and Education" scientific journal. ISSN 2181-0842, Toshkent. SJIF(2023):3,848. vol.4 2023. -б. 1227-1233.

<https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5196>